



JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI

Nazarov Ilxambek Alimovich

O'z Res IIV Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20717835>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 14-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum qilinib, o'ta xavfli residivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

ABSTRACT

Bu hol unga berilgan barcha imtiyozlarning bekor bulishi bilan namoyon bo'ladi va Jinoyat-ijroiya kodeksining 109-moddasining to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida belgilangan huquqiy cheklash turlari va qo'shimcha huquqlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qattiq tartibli koloniyadagi intizomiy bo'limlarida karserlarda jazoni o'tayotgan mahkumlar esa chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan, kitob, gazeta-jurnal va boshqa adabiyotlardan, o'rinko'rpa buyumlardan, telefon orqali so'zlashuv va uchrashuvlardan foydalanish, oziq-ovqat mahsuloti va eng zarur narsalarni sotib olish, yo'qlov, posilka hamda banderollarni olish va jo'natish, xat va boshqa jo'natmalarni yuborish man etiladi. Ularga o'zlari bilan birga oziq-ovqat va shaxsiy buyumlarni olib kirish taqiqlanadi, yuvinish paytida foydalanish uchun beriladigan narsalar bundan mustasno.

Jazoni ijro etish muassasalarining turlari.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi jazoni ijro etish muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosidagi koloniyalar;
- tarbiya koloniyalari;
- turmalar;
- mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar.

Tergov hibsonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan JIEMlar vazifasini bajaradi.

Jazoni ijro etish koloniyalari voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarga bo'linadi:

- manzil-koloniyalar;
- umumiy tartibli koloniyalar;
- qattiq tartibli koloniyalar;

- maxsus tartibli koloniyalar.
- Mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmagan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Turmalar voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, mahkumlarning huquqlari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Manzil-koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalar;

umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar.

Manzil-koloniyalarda:

mazkur muassasalarga sud hukmiga binoan kelgan voyaga yetgan mahkumlar;

umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan va tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetgan mahkumlar;

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan sodir etgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tarzida sudning ajrimi asosida yuborilgan voyaga yetgan mahkumlar jazoni o'taydi.

Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash shartlari.

Qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 52,7 foizigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- besh marta qisqa muddatli va besh marta uzoq muddatli uchrashuv;
- sakkiz marta telefon orqali so'zlashuv;
- sakkizta posilka yoki yo'qlov;
- sakkizta banderol olish huquqiga ega.

Bu hol unga berilgan barcha imtiyozlarning bekor bulishi bilan namoyon bo'ladi va Jinoyat-ijroiya kodeksining 109-moddasining to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida belgilangan huquqiy cheklash turlari va qo'shimcha huquqlardan foydalanishga ruxsat etiladi.

Qattiq tartibli koloniyadagi intizomiy bo'limlarida karserlarda jazoni o'tayotgan mahkumlar esa chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan, kitob, gazeta-jurnal va boshqa adabiyotlardan, o'rinko'rpa buyumlardan, telefon orqali so'zlashuv va uchrashuvlardan foydalanish, oziq-ovqat mahsuloti va eng zarur narsalarni sotib olish, yo'qlov, posilka hamda banderollarni olish va jo'natish, xat va boshqa jo'natmalarni yuborish man etiladi. Ularga o'zlari bilan birga oziq-ovqat va shaxsiy buyumlarni olib kirish taqiqlanadi, yuvinish paytida foydalanish uchun beriladigan narsalar bundan mustasno.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash.

Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum qilinib, o'ta xavfli residivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Maxsus tartibli koloniyalarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida

ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan erkaklar ham saqlanadi.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- sud tomonidan qattiq tartibli koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar o'taydilar.

Ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.

Maxsus tartibli bir koloniyadan ikkinchisiga o'tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o'tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o'taydilar.

Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar kameralarda yoki umumiy yashash binolarida yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdori summasigacha har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- to'rt marta qisqa muddatli va to'rt marta uzoq muddatli uchrashuv;
- olti marta telefon orqali so'zlashuv;
- oltita posilka yoki yo'qlov;
- oltita banderol olish huquqiga ega;

Kameralarda saqlanadigan mahkumlarning kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rishi taqiqlanadi.

Tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash.

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmay turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga mo'ljallangan.

Tarbiya koloniyalarida:

o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan;

birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan mahkumlardan alohida saqlanadilar.

Ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravarigacha bo'lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar yil mobaynida:

- yigirma to'rt marta qisqa muddatli va sakkiz marta uzoq muddatli uchrashuv;
- yigirma to'rt marta telefon orqali so'zlashuv;
- o'n ikkita posilka yoki yo'qlov;
- o'n ikkita banderol olish huquqiga ega;

O'n sakkiz yoshga to'lgan va tarbiya koloniyalarida qoldirilgan mahkumlarga voyaga yetmagan mahkumlar uchun belgilangan normalarda ovqat, ust-bosh, moddiy-maishiy ta'minot va boshqa jazo o'tash sharoitlari tatbiq etiladi. Bu shaxslarning mehnat sharoitlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar JIKning 102-moddasida nazarda tutilgan rag'batlantirish choralaridan tashqari:

■ Jazoni ijro etish muassasasi hududidan tashqarida o'tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko'rishga yuborish;

■ qisqa muddatli uchrashuv o'rniga ota-onasi, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga erkinlikka chiqarish;

■ hibsonada bo'lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag'batlantirilishlari mumkin.

Jazoni o'tash tartibini buzganligi uchun tarbiya koloniyalarida mahkumlarga JIKning 105-moddasida nazarda tutilgan intizomiy jazo choralaridan tashqari tomoshaga borishdan bir marta mahrum etish tariqasidagi jazo qo'llanilishi mumkin.

Tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan mahkumlarga yetti sutkagacha, o'n olti va undan katta yoshdagi mahkumlarga esa o'n sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.

Tarbiya koloniyasining hibsonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga ikki soat qilib belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar, odatda, yigirma bir yoshga to'lgunga qadar, tarbiya koloniyalarida qoldiriladi.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan amalga oshiriladi.

Mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganidan, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi.

Jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan JPKning 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

Turmalarda jazoni o'tash.

Turmalar turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Turmalarda mahkumlar har kuni muddati bir soatlik sayr qilish hamda yil mobaynida:

- to'rt marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuv;
- to'rt marta telefon orqali so'zlashuv;
- to'rtta posilka yoki yo'qlov;
- to'rtta banderol olish huquqiga ega.

2- savol. Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish tartibi.

Mahkumlar jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i rahbarligidagi komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Turli noaniqliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida mahkumlar jazoni ijro etish muassasasiga shaxsiy hujjatlar yig'majildlaridagi ma'lumotlar asosida so'rovdan o'tkazilgach qabul qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasasiga qabul qilish vaqtida mahkumlar to'liq shaxsiy tintuvdan o'tkaziladi, ularning narsalari va buyumlari ko'zdan kechiriladi.

Mahkumlarning yonidan topilgan, foydalanishga ruxsat etilmagan narsalar va buyumlar jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining mazkur Qoidalarning 9-ilovasiga muvofiq shakldagi

qaroriga binoan olib qo'yiladi hamda mahkum ozod bo'lgunga qadar saqlash uchun topshiriladi yoki yo'q qilib tashlanadi yoxud davlat daromadiga o'tkaziladi va bu haqda tegishli hujjat (kvitansiya, dalolatnoma yoki qaror) tuziladi.

Mahkumning jazoni ijro etish muassasasi omborxonasiga saqlash uchun topshirilgan narsalari va buyumlari bo'yicha mazkur Qoidalarining 10-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada kvitansiya to'ldirilib, uning bir nusxasi mahkumga beriladi, ikkinchi nusxasi uning shaxsiy hujjatlari yig'majildiga qo'shib qo'yiladi.

Mahkumning yo'q qilingan narsalari va buyumlari bo'yicha mazkur Qoidalarining 11-ilovasiga muvofiq shaklda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi va uning bir nusxasi mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga qo'shib qo'yiladi, ikkinchi nusxasi esa, tartibot bo'limida saqlanadi.

Tezkor navbatchi olib qo'yilgan pul va qimmatli buyumlarni bir sutka ichida ularni olib qo'yg'an mansabdor shaxs tomonidan tuzilgan dalolatnoma yoki bildirgi orqali moliya bo'limiga topshiradi. Olib qo'yilgan pul va qimmatli buyumlarning hisobi mazkur Qoidalarining 12-ilovasida nazarda tutilgan daftarda yuritiladi.

Narsalar va buyumlarni davlat daromadiga o'tkazish to'g'risidagi mazkur Qoidalarining 13-ilovasiga muvofiq shakldagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanadi.

Jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgan mahkumlar ularning shaxsini o'rganish va sharoitga moslashib olishlari uchun o'n besh sutkagacha muddatga, odatda, qabul bo'limiga joylashtiriladi, manzil-koloniya kelgan hamda xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsonalari va turmalarda qoldirilgan shaxslar bundan mustasno.

Turmalarda mahkumlar sudning ajrimiga asosan qaysi rejim turidagi koloniyadan kelganligi yoki turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o'tab bo'lgach, qaysi rejim turidagi koloniyaga yuborilishi inobatga olingan holda mazkur Qoidalarining 14-ilovasiga muvofiq kameralarga joylashtiriladi.

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati mahkum yetib kelgan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida bu haqda hukm chiqargan sudni mazkur Qoidalarining 15-ilovasiga muvofiq shaklda xabardor qilishi, shuningdek mahkumning oilasiga mazkur Qoidalarining 16-ilovasiga muvofiq shaklda jazoni ijro etish muassasasi manzilini ko'rsatib hamda mahkumning yozishma olib borish, uchrashuv, posilka, yo'qlov va banderollar olish, telefon orqali so'zlashuv huquqlarini tushuntirib, xabarnoma yuborishi shart.

Mahkumlarni qabul bo'limida saqlash davrida ular tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va ularda yuqumli kasalliklar aniqlanmasa, JIEM ma'muriyati suhbatidan o'tkazilib, komissiya tomonidan brigada va turkumlarga taqsimlanadi.

Jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelganlaridan so'ng mahkumlarga jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida kerakli axborot beriladi, shuningdek ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi.

Maxsus bo'lim tomonidan sudning qaroriga muvofiq aliment to'lashi yoki moddiy zararni qoplashi lozim bo'lgan mahkumlar ro'yxati jazoni ijro etish muassasasi ning moliya bo'limiga, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolanishi lozim deb topilgan mahkumlar ro'yxati esa tibbiyot bo'limiga topshiriladi.

Mahkumlarga mazkur Qoidalarining 17-ilovasidagi ro'yxatda nazarda tutilgan oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlarni sotib olish hamda yonida saqlashga ruxsat etiladi. Taqiqlanmagan, lekin belgilangan miqdordan ortiqcha narsa va buyumlar jazoni ijro etish

muassasasi omborxonasida saqlanadi va bu haqda dalolatnoma tuziladi. Mahkumning omborxonada saqlanayotgan zarur narsa va buyumlari uning arizasiga asosan beriladi.



INNOVATIVE
ACADEMY